

Ismoil GASPRALI

DORUR-ROHAT MUSULMONLARI



Toshkent
«Akademnashr»
2022

UO‘K: 94(575.1)

KBK: 83.3(50‘)g

G 21 Ismoil Gasprali.

Dorur-rohat musulmonlari [Matn] / Ismoil Gasprali. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 256 b.

ISBN 978-9943-7577-7-6

UO‘K: 94(575.1)

KBK: 83.3(50‘)g

Ushbu kitobga buyuk mutafakkir, jadidchilik harakati asoschisi Ismoil Gaspralining «Dorur-rohat musulmonlari», «Farangiston maktublari», «Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar» asarlari kiritilgan. Muallif bu asarlarida makon va zamonni ko‘chirish uslubidan foydalangan holda musulmon olamining o‘z orzusidagi ideal manzaralarini yaratadi, o‘tmishdagi va zamonasidagi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy muammolarga e‘tibor qaratadi.

Kitob adabiyot, tarix va falsafa muxlislariga mo‘ljallangan.

Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi:

filologiya fanlari doktori, professor Zaynobidin Abdirashidov,
Anqara Hoji Bayram Vali Universiteti

Taqrizchi:

filologiya fanlari doktori, professor
Bahodir Karimov

ISBN 978-9943-7577-7-6

© Ismoil Gasprali
«Dorur-rohat musulmonlari»
© «Akademnashr», 2022

FARANGISTON MAKTUBLARI

1

Ey qardoshlarim, peshonam sho'r ekan! Peshonaga bitilganini ko'z ko'rar ekan. Juda ko'p narsa ko'rdim va bu ko'rganlarim hech kimnikiga o'xshamaydi!

Mol-davlatga ega, sog'-salomat bo'lgan mo'min bir musulmon Hijozga, muqaddas mamlakatlarga yo'l tutsa, men bo'lsam ko'zimni bir yumib-ochganda zolim falakning hukmi bilan o'zimni Farangistonda ko'rsam bo'ladimi! Ajoyib va g'aroyib maishati ajnabiyada, ya'ni yotlar orasida dimiqib tamom bo'ldim. Nima ham qila olardim! Peshonaga bitilgani shu bo'lsa, Xudoga shukr qilaman!

Madrasa do'stlarim Toshkentning ulug' madrasasindan fan takomil etib, ibodat, tariqat va ziyoratlar ila ko'ngillarini rohatlantirib, ko'zlarini nurlantirib yurgan bir vaqtlarida men bechora mamoliki islomiyadan uzoqda, Farangiston shahar va o'lkalarini kezib yurardim. Lekin har balo-yu har qazoga Xudoning o'zi beradigan ehsoni va davosi bor deganlaridek, Vengriya o'lkasini kezib yurganimda unutilib ketilgan avliyolardan Gul-Bobo¹ ziyoratiga musharraf bo'ldim.

Farang o'lkasida, Puatye shahri atrofida Qirq-Aziz qadamjolariga yuz surdimki, Andaluz askari islomiyasi Fransiyadan qaytishida jangda shahid bo'lgan edilar.

¹Vengriyada XVI asrda usmonli turklaridan qolgan Bektoshiya tariqatidagi shayxning turbasi va qadamjosi.

Andaluzning muqaddas tuproqlarini kezib, to Oq dengiz² qirg'oqlarigacha, Septe bo'g'ozini uzra cho'zilgan Jabalut-Toriq³ tog'larini ziyorat va sayr ettimki, bundan 1172 yil muqaddam islom lashkarboshilaridan Toriq ismli zoti oliy Afrika qit'asidan Ovruponing bu joylariga qadam qo'yarkan, bir hovuch askarlariga xitoban:

— Qardoshlarim, o'ngimizda hisobsiz dushman, muzaffarlik va sha'n, orqamizda Oq dengiz, kemalar va qaytib ketish. Lekin muhorabaga chiqqan islom askari yo shahid, yo g'oziy bo'lishi lozimligi uchun kemalarni yondiraman va siz bilan dushmanga qarshi jangga kiranman. Yo Olloh!!! — deya qisqa vaqt ichida Andaluz o'lkasini fath qilgan edi...

Shukrlar bo'lsinki, Farangistonda 3 — 5 yillar qolmoqqa majbur bo'lganimda bekorchi vaqt o'tkazmadim: bir-ikki ziyoratlar qilib, olis xotiralar ila lazzatlanadim va faranglarning hol-ahvollariga oshno bo'ldim. Ko'rganlarimni aytib bermoqchiman. Chunki bu ajoyib o'lkalarni kezmok har kimga ham nasib qilavermaydi. Yozganlarimdan bir-ikkisining nafi tegsa ham foydadir.

Toshkentdan safarga chiqqan vaqtimda 22 yoshda edim. Otamdan qolgan (Xudo rahmat qilsin!) mol va boylik har qancha sarflasam yetarlik edi. O'zim esa, «oqshom qayda qolsam, vatan va yurt anda» deganlaridek, yolg'iz, bo'y yigit edim. Salomatlik joyida, ilm va bilim uchun har qancha yurmay, orqamdan boqib qoladigan bir kimsa yo'q edi...

Orenburg orqali Moskvaga keldim. U yerda ko'rganlarim va qozonli tanish-bilish musulmonlardan olgan ma'lumot-

² O'rta Yer dengizi.

³ Jabal ut-Toriq — Gibraltar.

larimdan Farangiston g'oyat ko'nglimga tushib, shu o'lkalar-ni ko'rish havasi paydo bo'ldi va eski kitoblardan Ovrupoda zamoni arab-u turkdan qolgan azizlar va qadamjolar borligini bilib, ularni ziyorat etmoqni ko'ngilga tugdim.

Shu maqsadda Odessaga keldim. Bir hatlasam, Istanbul edi. O'rtada bir Qora dengiz bor. Farangiston ko'nglim-ni o'rtab tursa-da, til bilmagan holda faranglar orasiga tushishdan qo'rqardim, ammo Xudoning o'zi ishimni yengil qildi... yordam berdi. Farang ulamolaridan biri demish: «Voy xotinlar, voy xotinlar!». Darhaqiqat, xotinlar nimalar qilmaydilar. Aytganimday bo'ldi. Istanbul deb edim, Parijga kelib qoldim. Ayo-So'fiya degan edim, Madlen cherkoviga borib qoldim! Xudoning hikmati hisobsiz! Xotinlar-da biri emish. Xudoning ne'matlari ko'p, xotinlar-da biri emish. Bu hol Turkistonda unchalik ham zohir bo'lmasa-da, erlar xotinlarning eshagi ekanligi Farangistonda ochiq zohir bo'ladi.

2

Qismat emish, chorasi bormi? Odessada teatr, ya'ni tomoshaxonaga borgan edim. Tomoshaga kirgan bir farang qizi yonimga kelib o'tirdi. So'ngroq bildimki, bu qizning ismi Jozefina bo'lib, Istanbuldan vatani — Parijga qaytayotgan ekan. Men kabi musofir o'laroq tomoshaxonaga kirgan. Istanbulda vazirlardan biriga dars berarkan, o'qituvchi qizlardan ekan. Shunday qilib, tasodifan teatrdagi uchrashib qoldik. Bu qismat-a! Teatr nadir desangiz — bu shunday bir tomosha va sayr xonasidirki, unda bo'lgan narsalardan gapi-radilar, bo'lmagan hollarni ham bayon qiladilar. Xotin-qizlar

ochilishi mumkin bo'lmagan joylarini-da ochib yuraveradilar. Farangiston ahvoli shunday-da! Bu qanaqasi desangiz, Odessa aholisining yarmidan ko'pi farang. Men ham insonman, jonsiz bir mumiy o'lgan emas! Har nima bo'lsa, marhamat va ne'mat deb bilaman. Hech ham ochilmasinlar demayman: lekin bunday gavjum jamoa orasida bunday yurmoqni ham munosib ko'rmayman. Yonimdagi farang qizi boshqa xotinlarga o'xshamasdi, odobli bir qiz ko'rinar edi. Boshidan oyog'iga qadar qora matodan yopinchiqqa o'ralgan, hamma joyi yopiq edi. Tomoshada bo'lgan boshqa xonimlarning yap-yalang'och bo'yin va ko'kraklariga boqqanimcha (qanday boqmayinki, qayoqqa qaramasam, hammasi shu ahvolda), Xudodan quvvat va sabr so'rar edim. Lekin madmuazel Jozefina (fransuzcha qizlarga shunday murojaat qilinadi) bular kabi suqlantiruvchi emas edi. Mastur bo'lmasa-da, masturiyatdan xabardordek edi. Masholloh!

Bir o'yin tamom bo'ldi. O'yinchilar, xotin va er kishilar o'pishib, quchoqlashib ichkariga kirib ketdilar... Charshof tushdi. Yonimdagi Jozefina xonim menga qayrilib: «Taqsir afandim, bu o'yin va tomosha sizga xush keldimi?» — dedi.

Go'zal og'izdan nozli sas ila chiqmish turkcha kalimalar chechak boli, Sibir moyi kabi totli kelib, tomoshaning odobdan xoliligini qizga bildirmoq uchun dedim: «Xonim afandi, tomosha yomon emas, o'yin mazmuniga ko'ra, ko'p vaqt safarda bo'lib, uyiga qaytgan er, albatta, xotini va rafiqasini sog'inadi. Aytgan she'r va ashulalari muhabbatlariga doir bo'lsa kerak, albatta. Lekin sabrsizlik qildilar. Parda tushar-tushmas o'pisha boshladilar... O'pishmoq xato emas. Er va xotin bir-biri uchun ne'matdir. Lekin bunday ishlar

yolg'iz qolganda bo'lishi kerak. Bunday oshkoralik yarashmaydi. Gul ila bulbul yo yarim kechada, yo sahar mahali sevishadilar. Sas uzoq ketsa-da, muhabbat, sevinch masturdir...»

Jozefina xonim ham kuldi, ham qizardi, boshqalar uchun uyaldi. So'ngra mening kim ekanligim va qayoqlarga ketayotganimni so'rab bilib oldi. Qirq yillik do'st kabi so'ylasha boshladik, ham odob bilan so'ylashar edik. Istanbulda bekorchi vaqt o'tkazmagan farang qizi musulmonlardan anchagina yaxshi tarbiya olgan, uyalishga, qizarishga o'rgangan. Masholloh!

Totli-totli gaplashib turishimizga odobsiz kishilar to'siq bo'ldilar. Jumlaning ko'zi qizga va menga tikildi. Kichik durbin va ochma ko'zoynak orqali hayosiz xotinlar bizga qarab kulmoqda edilar. Xotinlar Jozefinani, erkaklar esa meni ustimdan kulganlari shubhasizdir...

Bu holda farang qizi holimni tushundi va uning xonasiga borib, oqshomning bir qismini birga o'tkazishni taklif qildi. Taajjub etmang! Farang orasida yanada ajoyib odatlar bor. Taklifni qabul qildim. Ketdik. Nima uchun bormayin? Avvalo, o'zi chaqirdi, ikkinchidan, go'zal bir qiz, uchinchidan, turkcha bilib, men bilan gaplasha olsa, to'rtinchidan, bunday safarda vaqtni xush o'tkazmoq kerak. Yana sabablar ko'p. Lekin shulari ham yetarli...

«Kim suvsab, suv topsa-da, ichmas?!

Kim gul ko'rur-da, gulga boqmoq istamas?!»

Jozefina katta mehmonxonalardan birida ikki xona olib, istiqomat qilar ekan. Mehmoni bo'lganligim sababli meni

siylashga g'ayrat qildi. Raqi-sharob ichmayman haromdir. Buni tushungach, farang qizi totli sharbat, meva va boshqa narsalar keltirib, Istanbul ahvolidan ancha gapirdi. Turkiston to'g'risida ham ko'p narsalar so'rab, ba'zi aytgan gaplarimni esdan chiqarmaslik uchun daftarchasiga yozib oldi...

3

Bir hafta o'tdi... Shu kunlarni farang qizi bilan o'tkazdim. Faranglar va Farangiston to'g'risida menga aytgan ma'lumotlari sababli farang xalqi diqqatga loyiq va g'aroyib xalq ekanligiga shubham qolmadi. Shunday qilib, Jozefina bilan tanishib olganimdan keyin mamoliki islomiyani ziyorat qilmasdan avval begona o'lkalarni kezib ko'rish va yaqindan bilish ishtiyoqi ortdi. Va ne uchun ko'rmayinki, qayerga borsam, Xudoning mulki va u o'lkalarda suvsiz sahrolar, yo'lto'sar va qaroqchilar yo'q. Qizlar, xotinlar bir o'lkadan ikkinchisiga bemalol boradilar, hech kimsa bir ziyon ko'rmaydi. Qonunlari, tartiblari g'oyat mukammal, muntazam. Farangistondagi bu holni bizning Turkistonda ham ko'rmoq, loaqol tasavvur etmoq, fikrlamoq va nazari tanqiddan o'tkazmoq g'oyat foydalidir. Ma'lumki, yurt kezmoq, sayohat qilmoq ulug' bir darsxonada dars olmoq maqomida.

Ota-bobosining do'stidek menga yopishgan Jozefina xonim (qanday ajoyib qiz!) to Parij shahriga qadar yo'ldosh bo'lib zeriktirmasdan keldi. Turkiston uchun Buxoroyi sharif qanday bo'lsa, Farangiston uchun ham Parij shahri shunday. Faranglarning gulshan-bog'chasi, funun va ma'rifat chashmasi bu shahardir.

Jozefinaning turkcha bilishi, mening esa farang tillaridan bexabarligim sababli uning hamrohligi g'oyat maqbul bo'ldi. «Yo'l bo'yi va hatto Parijga yetganimizdan keyin ham: «Sizga fransuzchani o'rgataman, fransuz tili — ulamo va kiborlar tili. Bu til bilan dunyoni kezmok mumkin. Hamma yerda ma'lum va maqbul tildir», — deya farang qizi holi-jonimga qo'ymadi. Xushtabiat, fikrli qiz ekan! O'qituvchi qizlardan ekanligini aytgan edim. Tekinga, bir pulsiz sizga o'zim o'rgatib qo'ysaman deganiga nima deysiz, nima, mendan qarzi bormi? Pul bermoqchi bo'ldim, olmadi. Ajoyib qiz! Berilgan pulni ham olmaydimi?! Ammo-lekin men ham boyvachcha yigitlardan-man... Qiz boladan dars olib, foydalanib, uning oldida qarz-dor bo'lib qolish sha'nimga to'g'ri kelmaydi! Pul olmasa, hadya beraman. Hadya olishga nomus etmas-a?

Sibirning qunduz yoqalik to'narlari xaridorgirliги xayolimga kelib 300 rublga bir zo'r to'n oldim va do'stligimiz hamda sha'nimizga tegib ketmaydigan qilib qizga hadya qildim.

«Mulla Abbos, siz uzoq yo'llarga ketyapsiz, bunday hadya kerakmidi, qolaversa, isrof», — deya biroz nozlangan bo'lsa-da, qabul qildi. Har holda, xotin-qizlarning hadyani yaxshi ko'rishlarini va hadya bergan kishiga boshqacharoq qarashlarini bilardim. Jur'atimning sababi shundan edi. Yo'lga hozirlanayotgan edik. Jozefina dedi:

— Mulla Abbos, salla va sudrama choponni tashlash kerak. Farangistonda bunday kiyim kiyilmaganligi bois har kishining ko'zi sizda bo'ladi. Tomosha bo'lasiz. Farangcha kiyinsangiz, bermalol yurasiz, kimsa tanimaydi, e'tibor qilmaydi!

— Yo'q, yo'q, Jozefina xonim, ikki ko'z emas, qirq ko'z bilan qarasinlar, sallamni ham, choponimni ham tashlamayman!

Qizning bu taklifini kamolan rad etib, qiyofatni o'zgartirish lozim bo'lsa, Farangiston sayohatidan voz kechishimni aytganimda qiz dedi:

— Mulla Abbos, faranglar istanbullik usmonlilar bilan ancha tanishlar. Istanbul kiyimi va boshingizga fas⁴ kiysangiz, qanday bo'larkin? (Shu orada bir necha istanbulliklar rasmlarini ko'rsatdi.) Bu Bobi Oliyda, Usmonbekning rasmi. Qalin do'st edik. Bu Harb devonidagi Izzat afandining rasmi. Juda ma'lumotli bir afandi. Bu saroy kotiblaridan Mahmudbek... Bulardek kiyinsangiz, faranglar sizni usmonli deb o'ylab, ko'z ila oshamaslar⁵!

Rasmlarni ko'rdim. Ammo ne foyda? Boshlaridagi faslarini olib tashlang, biror farangdan farqi yo'q. Musulmon ekanliklari faqatgina fasdan ma'lum... Qiz ularni musulmon to'ralari va ma'murlari demoqda. Kim biladi. Balki, yangilishdir...

— Yo'q, Jozefina, — dedim. Bu Istanbul qiyofati ham menga to'g'ri kelmaydi. Sallam va uzun choponimni tashlashim ham durust emas. Men turkistonlikman, bilsinlar, ko'rsinlar, ne ziyoni bor?..

Bundan buyon milliy va ajdodiy qiyofatni o'zgartirmaslikka va boshimda oq salla, ustimda zarrin chopon, oyog'imda yashil etik (mahsi) bo'lishiga qaror qildim. Shunday bo'lsada, o'n dona farang ko'ylaklaridan oldim. Darhaqiqat, farang matoh va ko'ylaklari g'oyat oliy sifatli. Ko'ylak nima bo'lsa ham ko'ylak-da. Ko'ylaklar bilan qo'shib bir-ikki bo'yinbog'i ham oldim. Farang ko'ylaklari uchun lozim narsa. Jozefina

⁴ Turklarning bosh kiyimi.

⁵ Yemoq.

xonim esa oppoq va ko'm-ko'k qo'lqoplar hadya qildi. Farang ulamosi va kibori qishin-yozin qo'lqopsiz yurmas ekan. Qo'lqop tarbiya va nazokatning bir ishorati emish. Qabul qildim. Qo'lqopdan bir ziyon yo'q...

Farang qizini birinchi marta teatrda ko'rganimda ichimni qizdirganini yozgan edim. Besh-o'n kundan beri bu qizg'inlik so'nimadi, ortdi. Yo'lda bir aravada, ovqatda bir dasturxonda, karvonsaroy va mehmonxonalarda bir xonada bo'lishimiz yo'l va ahvol taqozosidan bo'lib, holimni fikr qilmoq lozim keldi. Chunki husni jamol, ahli irfon bir qizning doimo ko'z o'ngingda bo'lishi qon qaynatib, aqldan ozdirishi ma'lum... Faranglar nima qiladilar, bilmayman. Er va xotin-qizlar doimo bir yerda bo'ladilar. Qonlarining tarkiboti kimyoviyasi bizlarnikidan boshqachami, bilmayman, yoki ichlarida baliq qoni harakat qiladimi? Bunday bo'lmaganida, masturiyatning nomi bo'lur edi... Unday narsa yo'q!

Qizning rafiqligini tark etib, boshqa bir rafiq qidirishga, topishga hojat ko'rmadim. Yolg'on emas, qizning hamrohligi ko'ngilga xush kelardi... Ishonmaysizmi? Go'zal, yoqimli bir xotin va qizning hamrohligi yoqmaydimi? Ma'lumingizkim, xotinlarning hamrohligigina emas, balosi, qazosi ham rohatbaxsh va lazzatli bo'ladi. Pari qizlar, podshoh xotinlari suyuklilarini o'ldirganlarida qon oqizmay, qitiqlab o'ldiradilar! Nima bo'lganda ham, bunday o'lish niyatim yo'q edi. Na muhabbat daryosiga tashlanmoq, na sevgi bog'chasida sayr qilmoqni istayman, ya'ni qanday xotin bo'lsa bo'lsin, haromdan uzoqroq, gunohdan qochmoq murodida edim. Shu sababli Jozefina bilan birga bo'ladigan sayohatimni o'ylab ko'rishga majbur bo'ldim. Ko'zga xush qizcha edi! O'ylan-

maslik mumkinmi? Odob va axloq — kuchli narsa. Lekin istak va ko'ngil ham undan kam emas. Masalani o'ylab, chorasini topolmay, boshim qovoq kabi shishdi. Bir kun dengiz qirg'og'idagi bog'chada aylanib yurib bir fikr xayolimga keldi... Bo'ladimi, bo'lmaydimi, bilmayman... O'sha zahotiyoq o'rmonda adashib, qiynalib yo'l topgan kishidek xursand bo'lib qiz oldiga chopdim...

4

— Nima qildingiz, tayyormisiz, Mulla Abbos? — deya qiz qarshi oldi va ichkariga olib kirib, yoniga o'tkizdi... Qarshisiga emas, yoniga o'tkizdi! Nima sababdan, bilmadim, farang qizlari er kishidan hech bir tortinmaydilar. Mutlaq faranglarning qoni-joni bizlardan boshqacha bo'lsa kerak. Bular bizlardek otashli va qizg'in odamlar bo'lsalar edi, xotinlari bunday tahlikali usul ila muomala qilmagan bo'lardi! Yosh, qari, er-u xotin hammasi bir yerda bo'ladilar, hammalari xotinlarmi, kimlar, o'zi?! Tushunmadim, ajoyib qavm. Xudo saqlasin, agar Toshkentimizda uch kun farang odati joriy bo'lib, er va xotinlar barchalari bir yerga kelib tursalar, nelar bo'ladi, nimalar bo'ladi?! To'rtinchi kuni shahar buzilib bitsa kerak...

— Ha, Jozefina xonim, yo'lga hozirlandim. Bugun yo erta yo'lga chiqamiz. Lekin yo'lga chiqishdan oldin sizdan bir-ikki narsani bilmoqchi edim, mumkin bo'lsa.

— Ayting, afandim, nima ekan u?

— To'rt Haq kitobning biriga imon keltirasizmi?

— Albatta, afandim, katolik mazhabida Injili sharifga imon keltiraman.

- Xo‘sh, ota-onangiz bormi?
- Vafot etganlar, afandim... Sizning savollaringiz ajablanarli, nima uchun so‘rayapsiz, afandim?..
- Vafot etganlar... Otashlari yengil bo‘lsin...

5

— Ham savollaringiz taajjubli ham o‘zingiz rohatsiz ko‘rinasiz, — deganida farang qiziga javoban:

— To‘g‘ri, azizam, biroz rohatsizligim bor va bu rohatsizligim ham sizdan bo‘layotir. Rohatni yana sizdan talab etaman, marhamat qilib rad etmassiz deya umid qilaman. Ham taqdir bo‘lsa kerak... — dedim.

— Borakalloh! Albatta, sizni rohat etmoqqa harakat qilaman. Lekin rohatsizlik nimadan, negadir tushunmayapman, afandim.

— O‘zim aytmas edim. Hayosiz, odobsiz emasman. Lekin yo‘lda, sayohatda kimdan iltimos qilaman? Ayb bo‘lsa ham uyalib, qizarib o‘zim aytishga majburman: men sizni g‘oyatda yoqtirdim, sevib qoldim... Xudoning amri, Payg‘ambarning qavli ila sizni olmoqchiman... Iltimos qilaman, rad etmang. Bir ko‘rishda sevdim ham sha‘ninga muvofiq ravishda mumkin qadar to‘liq mahr va qalin beraman...

Qiz qip-qizil bo‘lib, o‘yga toldi. So‘ng:

— Mulla Abbos, so‘zlaringiz jiddiy bo‘lsa, birdan javob berolmayman. Bunday ish vaqt talab qiladi, — dedi.

— Albatta, afandim, jiddiy gapirdim, bunday ishlar bilan o‘ynashib bo‘lmaydi. O‘ylab ko‘ring. Inshoolloh, yaxshi hayot kechiramiz. Ammo sizni olmasam, siz bilan yo‘lga chiqmay-

MUNDARIJA

Ustozi muazzam (<i>Z.Abdirashidov</i>).....	3
Farangiston maktublari.....	40
Dorur-rohat musulmonlari.....	126
Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar	233

Izoh va qaydlar uchun

Adabiy-badiiy nashr

Ismoil GASPRALI

DORUR-ROHAT MUSULMONLARI

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahridin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Suhrob IBODOV

Musahhih: Adolat ABDULLAYEVA



Terishga berildi: 15.12.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.06.2022-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 10,6. Shartli b.t.: 14,8.

Adadi: 2000 nusxa.

Buyurtma № 50

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Toshkent shahri So'galli ota ko'chasi 5-uy.

Tel.: (+99899) 433-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz